



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 386 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish	15
Elmanov Abbas Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli	19
Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	28
Gulmira Jumanova	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	33
Erboyev Suxrob Abdusalomovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi	37
Davlatova Zebo Haydarovna	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari	40
Ochilova Farida Baxriddinovna	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari	44
Qo'chqarova Oysha Oltibayevna	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
Sevara Mamatkarimova	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
Курбанова Шаира Исмаиловна	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari	63
Muminova Feruza Farxodovna	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati	70
Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	74
Saidova Dilnoza Maripovna	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
Дмитрий Валерьевич Пупонин	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям	82
Муксинова Динора Азаматовна	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti	87
Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi	
Valeologik tarbiya asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda innovatsion va raqamli yondashuvlar	92
Berkinova Charos Islomovna	



Grammatik tushunchalarni o'rgatish metodikasi.....	96
<i>N. R. Masharipova</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quvchilar bilimini baholashda xorijiy tajribalardan foydalanish finlyandiya ta'lim tizimi misolida.....	99
<i>Obidova Muqaddas Ro'ziqulovna</i>	
The Difference Between Androgogy and Pedagogy.....	106
<i>Pardayeva Aziza Rahmatillojevna</i>	
Elektr mashinalari fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari.....	110
<i>Shodiyeva Nozina Shuxrat qizi</i>	
Umumta'lim maktablarida direktor o'rinbosarlarining aksiologik yondashuv asosida boshqaruv funksiyalari va vakolatlari hamda maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish yo'llari.....	113
<i>Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li</i>	
Ispan tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari	119
<i>Tursunqulov Sanjar Dilmurod o'g'li, Shukurullayeva Feruza Dilmurodovna</i>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlarining qo'llanilishi	124
<i>Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda empatiya hissini shakllantirishning nazariy asosi	127
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Bahodirovna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	130
<i>Raximova Dilshoda Xoliqberdiyevna</i>	
Bo'lajak sport murabbiylarida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari	134
<i>Sherzod Shuxratovich Boboyorov</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari.....	138
<i>Sangirov Nuriddin Iriskulovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrativ modeli	142
<i>Rasulova Umida Bahodir qizi</i>	
Yashil pedagogikaning konseptual modeli va tamoyillari.....	146
<i>Raxmatova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Ta'lim jarayoni ishtirokchilarida emotsional barqarorlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari ..	149
<i>Boymatova Munavvar Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi.....	152
<i>Lukmonova Salomat Gafurovna</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining shakl, metod va vositalari	157
<i>Farmonova Madina Bahriddin qizi</i>	
Innovatsion boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilish va kommunikatsiya samaradorligi	161
<i>Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning media savodxonligini shakllantirish metodikasi.....	167
<i>Choriyeva Xurmo Panji qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassisleri malakasini oshirish tizimining zamonaviy tendensiyalari va raqamlashtirish jarayonlarining pedagogik ahamiyati.....	172
<i>Qosimova Sh. N., Dusmaxamedov A. A.</i>	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	177
<i>Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi</i>	
STEAM loyihalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish	181
<i>Mirjamolova Moxira Abdugaffor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati va metodik asoslari.....	188
<i>Axmad Bolqiyev</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida baholashning pedagogik asoslari.....	191
Shavqiddin Burxonov	
Boshlang'ich ta'limda liderlik va pedagogik menejment muammolari.....	194
Pardaboyev Doston	
Raqamli ta'lim muhiti: tushunchasi, strukturasi va rivojlanish tendensiyalari.....	197
Kulboyeva Dilnoza Abdug'afurovna	
Особенности применения графических органайзеров на практических занятиях по дисциплине “Практикум литературы народов СНГ”.....	199
Татьяна Викторовна Половинкина	
Historical Stages in the Study and Treatment of Scoliosis (Spinal Curvature).....	204
Shermatova Mokhira Baxodir qizi	
Talaba qizlarga badiiy gimnastika cho'qmori yordamida bajariladigan fundamental mashqlarni o'rgatish....	209
Musharafxon Sultanova	
Oliy ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha xalqaro modellarning qiyosiy tahlili.....	213
Ziyotova Madina	
Sport mutaxassislarini tayyorlashda voleybol o'qituvchisining ko'nikmalari va uslubi	216
Turg'unov Baxtiyor O'rolovich	
Matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish	220
Yusupova Latofat Nuriddinovna	
Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	228
Nasirova Nigora Baxtiyor qizi	
Paraengil atletika mashg'ulotlarida individual yondashuvning ahamiyati	233
Abduxoliqova Shoiraxon Akramjon qizi	
Biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish	239
Baxrombekova Sojidxon Sherzodjon qizi	
Maktab texnologik ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: o'rta muddatli istiqbollar (2027–2031)	245
Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna, Tursunov Sherzod Ziyat o'g'li, Ismatullayev Javohir Ubaydulla o'g'li	
Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali jismoniy tarbiya va sport tizimini boshqarish samaradorligini oshirish	251
Eryigitov Dilshod Xolboyevich	
Enhancing Speaking Skills Productively in English	255
J. M. Fayzullayev, G. R. Elmonova	
Nutqida nuqsoni bo'lgan katta guruh bolalari bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	259
Jumanova Iroda Nomozovna, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich	
2–3 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvi: nazariy va empirik tahlil	263
Klicheva Dilnoza Zulfon qizi	
Inson–texnika tizimida ta'lim olayotgan talabalarda iste'dod namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	267
Kuvandikova Gulnora Gulamovna	
Bo'lajak pedagoglarning mutaxassis sifatida shakllanishida xavotirlanish holatining namoyon bo'lishi.....	270
Nuriddinov Rasuljon Samitjon o'g'li	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuv.....	274
Nuriddinova Maysara Ikramovna, Kodirova Albina Faridovna	
Talabalarda qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	279
Rajabova Go'zal Zarifovna	
Musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikning tezkorlikka ta'siri.....	283
Sitara Elova Axmatkulovna	



Pediatriya ta'limida sun'iy intellekt – talaba uchun virtual assistent.....	287
<i>Umarkulov Muhtorali Islomkulovich</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida jismoniy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	290
<i>Xakimov Xurshid Nozimovich</i>	
Сущность и виды познавательной активности детей 5–6 лет.....	294
<i>Джамилова Н. Н., Кудратова М. У.</i>	
Uzluksiz ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning pedagogik-psixologik masalalari.....	298
<i>Siddiqova Sanobar Xaydarovna</i>	
Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish, ijodiy faolligini oshirish.....	301
<i>Siddiqova Sanobar Xaydarovna, Qushoqova Guzal</i>	
Badiiy adabiyotda Ibn Sino obrazining yaratilishidagi o'ziga xosliklar.....	304
<i>Tangirov A. J.</i>	
Ta'lim klasteri asosida zaif eshituvchi bolalarni inklyuziv ta'lim muhitiga moslashtirishning pedagogik mexanizmlari.....	309
<i>Dilnoza Xushvaktovna Ernazarova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish.....	313
<i>Payzullaeva Gozsal Bayrambayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik mas'uliyat ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari.....	317
<i>Maxramova Gulchexra Maxsudbek qizi</i>	
Maxsus ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik samaradorligi.....	320
<i>Tashkenbayeva Dilafuz Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar.....	325
<i>Xazratkulova Shoira Noraliyevna</i>	
Musiq madaniyati darslarida multimedia vositalarida musiq o'qituvchisining kompetensiyaviy tayyorgarligi.....	329
<i>Qudratova Elnoz Ismatillayevna, Ismailova Sevinch, G'oibnazarov Elmurod</i>	
Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning didaktik modeli.....	334
<i>Tillaboyeva Havasxon</i>	
Diskursiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	340
<i>Boynazarova Nilufar Tilovmurot qizi</i>	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari.....	346
<i>Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari.....	349
<i>Ergasheva Sitora Baxriddin qizi</i>	
Sinergetik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirish zarurati va imkoniyatlari.....	353
<i>Xo'shboqova Surayyo Baxtiyor qizi</i>	
Interfaol metodlar asosida o'smirlarda mustaqil tafakkurni rivojlantirish.....	357
<i>Ismoilova Mashxura Mashrabbek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	360
<i>Kuvanakova Guljaxon</i>	
The Role of Autonomous Learning in Developing English Language Proficiency of University Students in Uzbekistan.....	363
<i>Omonova Kamola, Mutabar Zikriddinova</i>	
Maktablarda fasilitator faoliyatini tashkil etish borasida ayrim mulohazalar.....	366
<i>Qahhorova Marjona Ixtiyor qizi</i>	
Модель и педагогические условия формирования профессиональных компетенций будущих учителей в области информационной безопасности.....	370
<i>Сагинбаева Кымбат Кенжегалиевна, Нуриддинова Майсара Икромовна</i>	

Boshlang'ich sinf darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish.....	374
Xudoynazarova Muxlisa Bakhadirovna	
Совершенствование методической компетентности будущих учителей начальных классов на основе креативного подхода	377
Дониёрова Лайло Худайбердиевна	



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL-IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI

Ergasheva Sitora Baxriddin qizi

Termiz shahar 25-maktab fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida intellektual-ijodiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi intellektual-ijodiy kompetentlikning tarkibiy komponentlari, rivojlanish indikatorlari hamda uni qo'llab-quvvatlovchi didaktik va tashkiliy mexanizmlar asosida konseptual modelni asoslashdan iborat. Metodologiya sifatida kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivizm va sotsio-kognitiv qarashlar integratsiyasi qo'llanildi. Ilmiy yangilik to'rt blokli model (kognitiv – metakognitiv – kreativ-operatsion – ijtimoiy-kommunikativ)ni asoslash hamda baholash mezonlarini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Natijalar ta'lim jarayonini muammoli topshiriqlar, loyiha faoliyati, formativ baholash va refleksiya bilan uyg'unlashtirish yuqori samaradorlikni ta'minlashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: intellektual-ijodiy kompetentlik; kompetensiyaviy yondashuv; muammoli ta'lim; loyiha faoliyati; formativ baholash; refleksiya; metakognitsiya.

Abstract: This article provides a systematic analysis of pedagogical strategies aimed at developing intellectual and creative competence among secondary school students. The purpose of the study is to substantiate a conceptual model that integrates structural components, developmental indicators, and supporting didactic and organizational mechanisms. The methodology is based on the integration of the competency-based approach, constructivism, and sociocognitive perspectives. The scientific novelty lies in the development of a four-block model (cognitive – metacognitive – creative-operational – socio-communicative) and assessment criteria. The results demonstrate that the integration of problem-based learning, project-based activities, formative assessment, and reflection significantly enhances the effectiveness of the educational process.

Key words: intellectual and creative competence; competency-based approach; problem-based learning; project-based learning; formative assessment; reflection; metacognition.

Аннотация: В статье системно анализируются педагогические стратегии развития интеллектуально-творческой компетентности учащихся общеобразовательных школ. Цель исследования – обоснование концептуальной модели, включающей структурные компоненты, показатели развития, а также дидактические и организационные механизмы её формирования. В качестве методологии использована интеграция компетентностного подхода, конструктивизма и социокогнитивных теорий. Научная новизна заключается в разработке четырёхблочной модели (когнитивный – метакогнитивный – креативно-операционный – социально-коммуникативный) и системы критериев оценки. Результаты показывают, что интеграция проблемного обучения, проектной деятельности, формативного оценивания и рефлексии обеспечивает высокую эффективность образовательного процесса.

Ключевые слова: интеллектуально-творческая компетентность; компетентностный подход; проблемное обучение; проектная деятельность; формативное оценивание; рефлексия; метакогниция.

KIRISH

Umumiy o'rta ta'lim tizimida ta'lim natijalari tobora ko'proq faqat bilim hajmi bilan emas, balki o'quvchining murakkab vaziyatlarda mustaqil fikrlashi, yangi g'oyalar ishlab chiqishi, dalillarga tayangan holda qaror qabul qilishi hamda o'z faoliyatini ongli boshqarishi kabi integrativ sifatlar bilan belgilanmoqda. Ayniqsa, raqamli axborot muhitida bilimlar tez yangilanib borayotgan sharoitda intellektual salohiyat va ijodkorlik uyg'unligi o'quvchi muvaffaqiyatining muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Shu bois, intellektual-ijodiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik strategiyalarni ilmiy asosda belgilash 13.00.02 ixtisosligi doirasida, ya'ni ta'lim mazmuni va o'qitish metodikasi bilan uzviy bog'liq dolzarb masala hisoblanadi.

Mavjud adabiyotlarda kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijalarini faoliyatga yo'naltirilgan ko'rsatkichlar asosida belgilashi, o'qitish jarayonini esa o'quvchi subyektligi va refleksiya bilan boyitishi ta'kidlangan ^[1].

Shu bilan birga, maktab amaliyotida intellektual va ijodiy komponentlar ko'pincha alohida yo'nalishlarda talqin etilishi kuzatiladi: biri akademik yutuqlar va mantiqiy fikrlash bilan, ikkinchisi esa tasviriy yoki badiiy faoliyat bilan bog'lanadi. Biroq zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlar intellekt va ijodkorlikni vazifa yechimi jarayonida o'zaro uyg'unlashib, metakognitiv boshqaruv orqali takomillashadigan yaxlit tizim sifatida talqin qiladi ^[2].

Shuningdek, Programme for International Student Assessment kabi xalqaro baholash dasturlarida topshiriqlarning kontekstual, muammoli va transferga yo'naltirilgan o'quvchilardan nafaqat bilimlarni eslab qolish, balki ularni tahlil qilish, sintezlash va yangi vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini talab etishi bilan izohlanadi ^[3].

Shu asosda maqolada quyidagi muammo qo'yiladi: umumiy o'rta ta'lim maktablarida intellektual-ijodiy kompetentlikni barqaror rivojlantirish uchun qanday pedagogik strategiyalar tizimi zarur va ular qaysi shartlarda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Tadqiqotning maqsadi umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik strategiyalarni nazariy jihatdan asoslash, ularning tarkibiy modeli hamda baholash mezonlarini ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsad quyidagi vazifalar orqali izchil yoritiladi:

- *birinchidan*, intellektual-ijodiy kompetentlik tushunchasini didaktik nuqtai nazardan aniqlashtirish;
- *ikkinchidan*, uning asosiy komponentlari va rivojlanish indikatorlarini tizimlashtirish;
- *uchinchidan*, samarali pedagogik strategiyalar majmuasini hamda ularning amalga oshirilish shartlarini asoslash;
- *to'rtinchidan*, ushbu strategiyalarni ta'lim mazmuni va o'qitish metodlari bilan integratsiyalash mexanizmini ishlab chiqish.

Ilmiy yangilik sifatida intellektual-ijodiy kompetentlikni o'quv faoliyati kontekstida to'rt blokli model (kognitiv – metakognitiv – kreativ-operatsion – ijtimoiy-kommunikativ) asosida talqin qilish, mezonli baholash uchun indikatorlar tizimini taklif etish hamda strategiyalarni bosqichma-bosqich joriy etishning mantiqiy ketma-ketligini yoritish nazarda tutiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, olingan natijalar o'qituvchilarga dars dizayni, topshiriqlar bankini shakllantirish, formativ baholash hamda refleksiya texnologiyalarini rejalashtirishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda ijodiy fikrlashni o'qitish mumkinligi va uni maqsadli didaktik yondashuvlar orqali yanada rivojlantirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan qarashlar bilan mustahkamlanadi ^[4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Intellektual-ijodiy kompetentlikni rivojlantirish masalasi ko'plab olimlar tomonidan turli yondashuvlar asosida tadqiq etilgan.

Lev Vygotsky tafakkur va nutq o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab, bilimning ijtimoiy muhitda shakllanishini ta'kidlaydi, bu esa ijodiy fikrlash rivojiga xizmat qiladi.

Jean Piaget esa kognitiv rivojlanish bosqichlari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatining shakllanishini izohlaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda Robert J. Sternberg intellektning analitik, kreativ va amaliy turlarini ajratib ko'rsatib, ularning integratsiyasi samarali ta'lim natijasini belgilashini qayd etadi.

Ken Robinson esa ta'limda ijodkorlikni rivojlantirish zarurligini asoslab, an'anaviy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish lozimligini ta'kidlaydi.

Ushbu qarashlar kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'un holda o'quvchilarning intellektual-ijodiy rivojlanishini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-metodologik xarakterga ega bo'lib, umumlashtiruvchi tahlil asosida amalga oshirildi. Ma'lumotlar bazasi sifatida umumiy o'rta ta'lim didaktikasi, kompetensiyaviy yondashuv, kreativ fikrlash pedagogikasi hamda ta'limda baholash masalalariga oid monografiyalar, ilmiy maqolalar, metodik qo'llanmalar va o'quv jarayonini tashkil etishga doir me'yoriy-huquqiy materiallar tanlab olindi.

Tahlil jarayonida kontent-tahlil usuli orqali intellektual-ijodiy kompetentlikni tavsiflovchi asosiy kategoriyalar ajratildi; taqqosiy tahlil asosida turli yondashuvlar o'rtasidagi umumiylik va farqli jihatlar aniqlandi; konseptual



modellashtirish yordamida komponentlar hamda pedagogik strategiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tizimlashtirildi. Metodologik asos sifatida kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim natijalarini faoliyatda namoyon bo'ladigan integrativ sifatlar orqali ifodalashi hamda konstruktivistik qarashlarning bilimni o'quvchi tomonidan faol o'zlashtirish va muammoli vaziyatlarda mazmun hosil qilish bilan bog'lashiga tayangan holda tanlov amalga oshirildi.

Shuningdek, formativ baholash konsepsiyasi kompetentlikning shakllanishini uzluksiz jarayonda kuzatish va samarali teskari aloqani ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zarurligini asoslovchi muhim metodik tayanch sifatida qabul qilindi^[6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida intellektual-ijodiy kompetentlik umumiy o'rta ta'lim o'quvchisi uchun o'quv va hayotiy muammolarni dalillarga tayangan holda tahlil qilish, muqobil g'oyalar ishlab chiqish, yechimni asoslash, hamkorlikda sinash hamda refleksiya orqali takomillashtirishga xizmat qiladigan integrativ qobiliyatlar majmui sifatida konseptualashtirildi. Mazkur kompetentlik to'rt blokli model asosida ifodalandi.

1. **Kognitiv blok** predmet mazmunini chuqur anglash, mantiqiy amallarni bajarish, tushunchalararo bog'lanishlarni aniqlash va transfer qilish bilan tavsiflandi.
2. **Metakognitiv blok** maqsad qo'yish, rejalashtirish, monitoring olib borish, xatolarni aniqlash hamda o'z strategiyalarini qayta sozlash ko'nikmalarini qamrab oldi.
3. **Kreativ-operatsion blok** divergent fikrlash, g'oyalar generatsiyasi, analogiya va modellashtirish, noan'anaviy yechimlar ishlab chiqish va prototiplash jarayonlarini o'z ichiga oldi.
4. **Ijtimoiy-kommunikativ blok** esa fikrni aniq va asosli ifodalash, dalillar keltirish, muloqot va bahs madaniyatini rivojlantirish, hamkorlikda rol taqsimlash hamda umumiy natija uchun mas'uliyatni bo'lishish indikatorlari bilan belgilandi.

Model asosida pedagogik strategiyalar paketi tizimlashtirildi.

Birinchi strategiya muammoli vaziyatga asoslangan dars dizaynini joriy etishdan iborat bo'lib, bunda mavzu kirish qismi tayyor qoidalar orqali emas, balki qarama-qarshilik yoki yetishmayotgan axborotga ega vazifa orqali ochiladi; o'quvchi faraz qiladi, dalillar izlaydi va asosli xulosaga keladi.

Ikkinchi strategiya tadqiqot va loyiha faoliyatini tizimli tashkil etish bo'lib, qisqa siklli mikroloyihalar hamda fanlararo minitadqiqotlar orqali o'quvchi ma'lumot to'plash, tekshirish, natijalarni taqdim etish va himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Uchinchi strategiya topshiriqlarni kognitiv murakkablik darajasiga ko'ra differensialashtirishni nazarda tutadi: bir xil mavzu doirasida reproduktiv, tahliliy, sintez va transfer darajalariga mos vazifalar banki shakllantirilib, o'quvchi individual trayektoriya asosida yuqori bosqichlarga ko'tariladi.

To'rtinchi strategiya formativ baholash va samarali teskari aloqani darsning markaziy mexanizmiga aylantirishdan iborat bo'lib, mezonlar oldindan aniqlashtiriladi, jarayon davomida qisqa diagnostika, o'zaro baholash, o'zini baholash hamda "keyingi qadam" tavsiyalari beriladi.

Beshinchi strategiya refleksiv amaliyotlarni tizimli joriy etishni nazarda tutadi: dars yakunida o'quvchi o'z fikrlash jarayonini tahlil qiladi, qo'llangan usullar samaradorligini baholaydi hamda keyingi faoliyatini takomillashtirish yo'llarini belgilaydi.

Strategiyalarni samarali amalga oshirish uchun pedagogik shartlar ham aniqlashtirildi:

- o'qituvchining savol berish madaniyati va fasilitatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish;
- psixologik xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlash;
- o'quv resurslarining ochiqligi hamda ishonchligini baholashga o'rgatish;
- dars va darsdan tashqari faoliyat uyg'unligini ta'minlash;
- baholashning adolatli va mezonli tashkil etilishi.

Taklif etilgan konseptual model va strategiyalar paketi kompetensiyaviy yondashuvning "bilimdan foydalanish" tamoyiliga mos keladi hamda intellektual va ijodiy komponentlarni yagona tizimda integratsiyalash orqali metodik jihatdan aniqlashtiradi. Avvalgi yondashuvlarda kreativlik ko'pincha erkin topshiriqlar yoki badiiy faoliyat doirasida talqin etilgan bo'lsa, ushbu yondashuvda u predmet mazmuni bilan uzviy bog'langan muammo

yechimi jarayonidagi operatsion ko'nikmalar sifatida izohlanadi. Bu yondashuv ijodiy fikrlashni o'qitish va baholash mumkinligi haqidagi zamonaviy ilmiy qarashlar bilan uyg'unlashadi^[4].

Shu bilan birga, metakognitiv blokni alohida ajratish o'quvchining o'z fikrlash jarayonini boshqarishi strategiyalar samaradorligining muhim sharti ekanini ko'rsatadi, bu esa formativ baholash orqali teskari aloqani kuchaytirish zaruratini asoslaydi^[5].

Natijalar ijtimoiy-kommunikativ komponentning ham kompetentlikning ajralmas qismi ekanini tasdiqlaydi, chunki maktab amaliyotida ijodiy yechimlar ko'pincha hamkorlikda ishlab chiqiladi va himoya qilinadi; bu esa sinfdagi muloqot madaniyatini rivojlantirishni muhim pedagogik vazifaga aylantiradi. Xalqaro baholash tendensiyalari ham o'quvchilarning kontekstual muammolarni hal etishda dalillash, izohlash va natijalarni turli formatlarda taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi^[3].

Amaliy nuqtai nazardan, strategiyalar paketini joriy etishda o'qituvchining metodik dizayn kompetentligi muhim omil hisoblanadi. Muammoli vaziyatni puxta tanlash va loyiha faoliyatini mazmunan boyitish intellektual yuklama hamda ijodiy operatsiyalar samaradorligini oshiradi. Shuningdek, differensial topshiriqlarni oqilona boshqarish, baholash mezonlarini aniq belgilash va teskari aloqani o'z vaqtida ta'minlash ta'lim sifatini yuksaltiradi.

Tadqiqot nazariy tahlilga asoslangan bo'lib, keyingi bosqichlarda empirik sinovlar bilan boyitilishi istiqbolli yo'nalish sifatida qaraladi. Kelgusida eksperimental tadqiqotlar orqali strategiyalar paketining turli sinf bosqichlari va fanlar kesimida samaradorligini aniqlash, shuningdek, intellektual-ijodiy kompetentlik indikatorlari uchun baholash mezonlarining ishonchliligi va validligini tekshirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarida intellektual-ijodiy kompetentlikni rivojlantirish intellekt, ijodkorlik, metakognitsiya va muloqot komponentlarining o'zaro integratsiyasini talab etishini ko'rsatdi. Intellektual-ijodiy kompetentlikning to'rt blokli modeli uning tarkibiy tuzilishini aniq belgilash, rivojlanish indikatorlarini tizimlashtirish hamda ta'lim jarayonini maqsadga yo'naltirilgan holda loyihalash imkonini yaratadi. Pedagogik strategiyalar sifatida muammoli vaziyatga asoslangan dars dizayni, tadqiqot va loyiha faoliyati, kognitiv murakkablik darajasiga ko'ra differensial topshiriqlar, formativ baholash hamda reflektiv amaliyotlarning o'zaro uyg'unlashuvi kompetentlikning barqaror shakllanishi uchun mustahkam metodik asosni ta'minlaydi. Strategiyalar samaradorligi o'qituvchining fasilitatsiya ko'nikmalari, mezonli baholash madaniyati, psixologik xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish hamda mavjud resurslardan oqilona foydalanish darajasiga bog'liq. Kelgusida mazkur model va strategiyalarni empirik tadqiqotlar bilan boyitish, ularni fanlar kesimida moslashtirish hamda baholash rubrikalarini takomillashtirish ilmiy-amaliy natijadorlikni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida intellektual-ijodiy kompetentlikni rivojlantirish maqsadida darslarda muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarni loyiha va tadqiqot faoliyatiga jalb etish ularning mustaqil fikrlashini faol rag'batlantiradi. Formativ baholash va muntazam refleksiya orqali o'quv jarayonini tizimli takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini izchil oshirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зимняя И. А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 38 с.
2. Выготский Л. С. Мышление и речь. – Москва: АСТ, 2020. – 640 с.
3. Organisation for Economic Co-operation and Development. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 214 p.
4. Robert K. Sawyer. Explaining Creativity: The Science of Human Innovation. – New York: Oxford University Press, 2012. – 520 p.
5. Paul Black, Dylan Wiliam. Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment. – London: GL Assessment, 2010. – 86 p.
6. Педагогика: энциклопедия / под ред. В. А. Сластёнина. – Москва: Академия, 2008. – 528 с.
7. Qodirov B. R. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 256 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.